

## INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOLALARNING TA'LIM VA TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH

**D.J.Saparmuradova**

UrDPI Pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada integrativ yondashishning asosiy maqsadi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish bolalarni ijodiy faoliyatga orgatish bolalarning erkin fikrlashi oz fikr mulohazalarni tolaqonli bayon qilishi ozining erkinliklari va haq huquqlaridan to'g'ri foydalana olib bilishi lozmdir. Bu maqolada integrativ yondashish asosida bolalarda ta'lim va tarbiyasini rivojlantirish nafaqat ta'lim va tarbiya balki bolalarning psixologik va soglom rivojlanishi borasida ham fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Integrativ yondashish, mustaqil fikrlash, suhbat, faoliyat, ta'lim va tarbiya, psixologik, soglom, rivojlanish, qobiliyat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017-yil 19-oktabr Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi. Unda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Prezidentning Davlat maslahatchilari, tegishli vazirlik va idoralar rahbarligi ishtirok etdi.<sup>1</sup>

---

1. <sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017-yil 19-oktabrdagi nutqidan.

Prezident Shavkat Mirziyayevning qaroriga asosan maktabgacha ta'lim muassalariga bolalarni to'la qamrab olishini kesgin oshirish viloyat, shahar, tuman qishloqlarda mazkur muassalarni kopaytirish, yosh avlodni ushbu muassasaga nisbatan qiziqishlarini orttirish, maktabga tayyorlash sifatini yaxshilash, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol avlod sifatida tayyorlash borasida muhokamalar olib borilgan. Bunday natijaga erishishda asosan ko'zda tutilayotgan asosiy narsa bu bolalarga eng avvalo integrativ yondashishning zarurligidir.

Integrativ yondashish bu maktabgacha yoshdagi bolalarga turli fanlar va sohalar bo'yicha bilimlarni birlashtirish va bolalarda tayanch kompetensiyalarni takomillashtirishdir. Bu ham bolsa bolaga dunyoning yaxlit ko'rnishini va real hayotdagi vaziyatlar bilan bo'glashga qaratilgan asosiy yo'nalish bolib hisoblanadi. Ushbu integrativ yondashish metod orqali maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarda o'zlikni anglash hissi rivojlanib ijtimoyillashadi va muommoli vaziyatlarga duch kelganda unga yechim topa olish layoqati shakllanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida integrativ yondashish asosida yana ko'zda tutiladigan asosiy narsa bu bolalarda mustaqil fikrlashini va mustaqil so'zlash qobiliyatini shakillantirishdir. Ya'ni bola bunda o'zining erkin huquqlaridan to'g'ri foydalanib mustaqil fikr yuritishi va shu fikr va mulohazalarni to'liq bayon qilishi lozimdir. Bolada fikr yuritish jarayoni shakllanganidan keyin esa unda til qobilyati rivojlanadi va bolaning so'z boyligi bora-bora oshib boradi. Bolaning til qobilyati shakllanganidan keyn esa bolada atrofdagi tengdosh-dostlari va kattalari o'rtasida suhbat qurish jarayoni boshlanadi. Bola bunda fikr almashadi va o'ziga kerakli

bolgan savollarga javob topadi. Bunday jarayonlarga erishishda avvalambor ota-onaning undan keyn esa pedagog va o'qituvchilar va tibbiyot xodimlarning o'zni kattadir. Ota-ona bolasining sogligini uning va to'g'ri rivojlanayotganligini doimo nazorat olishi kerakdir. Samarali strategiyalar va ilg'or amaliyotlar bolalarning to'liq lingvistik salohiyatini ro'yobga chiqarishga va bolaning psixologiyasi rivojlantirishga ham yordam beradi. Bolaning psixologik rivojlanishida psixik jarayonlar (ma'rifiy, nutqiy, hissiy, irodaviy va hokazo) paydo bo'lishi va rivojlanishi, psixik xususiyatlar qaror topishini, xilma-xil faoliyatning (o'yinlar, o'qish, mehnat) rivojlanishini bolaning shaxs sifatida shakillanishini o'rganadi. Integrativ yondashish asosida maktabgacha yoshdagi bolaga ta'lim va tarbiyasini rivojlantirishda ularga ma'naviy-axloqiy me'yorlarni hamda axloqiy munosabatlar muhiyati va ularning ijtimoiy jamiyat hayotidagi ahamiyati to'grisida ham ma'lumotlar berilib boriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijobiy mazmundagi ma'naviy-axloqiy sifatlarni ham egallash yani ularga vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ro'stgo'ylik, ma'suliyatlilik o'zaro dostlik, ahillilik, qat'iylilik shirin so'zlik, go'zallikni his qilish, go'zallikni yaratishga intilish va hokazolarni qaror to'pishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganida maktabgacha yoshdagi bolalarga integrativ yondashish asosida maktabgacha ta'lim tiziminining uzliksiz boshlang'ich ta'lim bo'g'ini sifatida bolaning har tomonlama rivojlanishida, bolaning ijodiy qobiliyatlarini, uning individualligini rivojlantirishda, asosiy bilimlarni o'zlashtirishida va olamdagi bor narsalarning qonuniyatlarini tushinishida, ma'naviy yetuk shaxs sifatida shakillanishida integrativ yondashish jarayoni zarur hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017-yil 19-oktabrdagi nutqidan.
2. Integrativ yondashuv asosida Maktabgacha ta’lim yo’nalishi tarbiyachilarning pedagogik qobiliyatlarini takomillashtirish Gulnoza Xasanova maqolasidan.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirish Xolida Rahmanqulova maqolasidan.
4. Integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy axloqiy- tarbiyalash omillari Turg’unoy Abdullayeva maqolasidan.